



SALJUQIYLAR DAVRI TARIXINI O'RGANISHGA DOIR

Furqat Toshboyev

Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, PhD

Usmonov Navruz JDPU magistranti

Tel: (93) 303 46 33

e-mail: furqat7312@ mail.ru

Annotatsiya: Maqolada mualliflar o'g'uz qabilalari, qiniq turkmanlari va jumladan, saljuqiylar davlati tarixi haqida ma'lumot bergan. Bunda, o'g'uz qabilalarining Movaraunnaxrga kirib kelishi, Nurota vohasida joylashuvi, g'arbiy o'lkalarga ko'chishi va saljuqiylar davlatini tuzishi kabi masalalar IX-XII asrlardagi muhim siyosiy voqealari sifatida yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'g'uz qabilalari, saljuqiylar, g'aznaviylar, qoraxoniylar, V.V. Bartold, Xurshoh ibn Kubod, Zarafshon vodiysi, Nurota tog'i, Dexistonda, Balxon tog'lari, Sirdaryo bo'ylari.

Аннотация: В статье авторы предоставили сведения об истории огузских племен, туркмен-киники и государства Селджуков. При этом в качестве важных политических событий IX-XII вв. были освещены такие вопросы, как вхождение огузских племен в Моварауннахр, их расположение в оазисе Нурота, их миграция на западные земли, создание государства Селджуков.



Ключевие слова: огузские племена, Селджуки, Газневиди, Караханиди, В.В. Бартолд, Хуршах ибн Кубод, Зеравшанская долина, гора Нурота, Дексистон, Балханские горы, холми Сирдари.

Abstract: In the article, the authors provided information about the history of the Oghuz tribes, the Cynic Turkmen and the Seljuk state. Moreover, as important political events of the 9th-12th centuries. Issues such as the entry of the Oghuz tribes into Movaraunnahr, their location in the Nurota oasis, their migration to the western lands, and the creation of the Seljuk state were covered.

Key words: Oghuz tribes, Seljuks, Ghaznavids, Karakhanids, V.V. Bartold, Khurshakh ibn Qubod, Zeravshan Valley, Mount Nurota, Dexiston, Balkhan Mountains, Syr Darya Hills

O‘zbekiston tarixi fanining dolzarb muammolaridan biri bu Vatanimiz hududida eng qadimgi davrlardan boshlab yashayotgan aholining shakllanishi, joylashuvi, qabila va elatlarning munosabatlari masalasi hisoblanadi. Ular qatorida Amudaryo va Sirdaryo oralig‘iga o‘g‘uz qabilalarining kirib kelishi bu o‘lkalarni makon tutib yashab qolishi va g‘arbiy o‘lkalarga siljib Buyuk Saljuqiylar davlatini tuzishi kabi masalalar hisoblanadi.

Ma‘lumki, o‘g‘uz qabilalari Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi davlatchiligi va etnogenezida muhim o‘rin egallaydi. Asrlar mobaynida G‘arbiy Oltoydan to Qora dengizning shimoligacha, Volga – Ural bo‘ylaridan to Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan hududda o‘z hokimiyatini o‘rnatgan ushbu qabilalarning tarix sahnasida yorqin namoyon bo‘lishi X – XII asrlarda Saljuqiylar davrida kechdi. X asrda Somoniylar davlati qulaganidan keyin tashkil topgan davlatlar tarixi balan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy va etnik jarayonlar yangi davr olimlari uchun XXI asr boshida ham yangi izlanishlarga sabab bo‘lib kelmoqda.



O'g'uz qabilalari, qiniq turkmanlari va jumladan saljuqiylar davlati tarixi haqida yozma manbalar yaxshi saqlanib qolgan. Saljuqiylarning tarixi ularga zamondosh bo'lgan g'aznaviylar, Qoraxoniylar, Anushteginiy-Xorazmshohlar va ulardan avvalgi Markaziy Osiyoda xukm surgan sulolalar tarixiga nisbatan biroz yaxshi o'rganilgan va yozma manbalar ham ko'prok saqlangan. Bu sulola tarixi V.V. Bartold, tomonidan Sharqiy Eronning tarixiy geografiyasi, Afg'oniston va O'rta Osiyo tarixi bilan bog'liq voqealar doirasida qisman o'rganilgan¹. O'g'uz, qiniq qabilalari va saljuqiylar tarixi bilan bog'liq ilmiy ma'lumotlar S.G. Agajanov va Z.M.Buniyotovning qator ishlarida mufassal yoritilgan. Saljuqiylar davlati tarixini o'rganishda XII asrda yashagan Sadridin Ali al-Husayniyning «Axborad-davlat as-Saljuqiyya» asari muhim hisoblanadi. Xurshoh ibn Kubodning «Tarixi elchi Nizomshoh» asarining bir kismi ham Saljuqiylar saltanati tarixiga bag'ishlangan². Ushbu manbalarda qayd etilishicha, Zarafshon vodiysi va Nurota tog' etaklariga o'g'uzlar VIII-IX asrlarda kelib o'rtnashganlar. Keyinchalik, o'g'uzlarning islom dinini qabul qilganlari X asr boshlarida Sirdaryodan janubiy hududlarga ko'chib o'tganlar va mahalliy aholi tomonidan turkmanlar deb atalgan.

X asr oxiri va XI asrning birinchi choragida tashkil topgan saljuqiylar davlati tarixiga oid ma'lumotlar arab muarrixlarining asarlarida o'g'uz - saljuqiylarning Sirdaryo va Orol dengizi yaqinidagi cho'llarda ilk o'rta asrlardan boshlab yashaganligi ta'kidlanadi. Ibn Havqalning (X asr) ma'lumotlariga ko'ra, musulmon o'g'uzlar qarluqlar birga Vizkend shahrida atrofida, kichik bo'linmalari esa Dexistonda va Kaspiy dengizning sharqiy qismida, Balxon tog'larida ham ko'chib yurganlar va yarim o'troq tarzda yashaganlar³. Al-Ma'sudiy (X asr) Sirdaryo bo'ylarida yashovchi o'g'izlar (g'izlar) haqida ma'lumot berib ularni quyi, yuqori va o'rta guruh qabilalariga bo'lib sanaydi hamda ularni uchala guruhi

¹ Бартольд В.В. Историко-географический обзор Ирана. Соч. Т. VII. -М.: "Наука", 1971. – С. 189.

² Хамдамова М. Тарихи элчи Низомшоҳ. - Тошкент: «Yangi nashr», 2012. Б.54.

³ Ибн Ҳавқал. Китоб сурут ал –ард (Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С. Камолиддин). Тошент: 2011. Б. 58.

Асқаров А. А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. - Тошкент: "Университет", 2007, 202 бет.



ham “turklarning eng jasurlaridir” deb yozgan⁴. Yozma manbalarda qayd etilishicha, Saljuqbek dastlab Yangikent yabg‘ulari xizmatiga kirgan. Lekin ular bilan murosa qila olmay, Sirdaryoning quyi chap sohilidagi Jand hokimi bilan yaqinlashadi. Jand hokimi Shohmalik bilan ham kelisha olmagach, Nurota tog‘lariga ko‘chgan. Somoniy hukmdorlari o‘g‘uzlarga Nurota dasht yaylovlarida yashashga izn beradi.

Rashididdin va Abulg‘ozixonlarning yozishicha, o‘g‘uzlar 22 yoki 24 qabiladan iborat bo‘lgan. Sirdaryoning quyi oqimi, Orol dengizining shimolida barpo bo‘lgan O‘g‘uz davlatining yabg‘usi, Saljuqbek, saljuqiylar sulolasining asoschisi bo‘lgan. Ibn al Asirning yozishicha, u uzoq umr ko‘rib, 107 yoshida vafot etadi⁵. Abulg‘ozi Bahodirxon o‘z asarlarida “Qipchoqlar, Fan (Don), Itil (Volga) va Yoyuq (O‘rol) bu aytilgan suvlarning arasinda o‘lturdilar”. Qiniqli – turkman birlan virga o‘ltirur erdilar degan ma’lumotni beradi⁶. Ushbu asarlardan anglash mumkinki, o‘g‘iz qabilalarining katta qismi Sirdaryoning quyi xavzasi va Dashtiqipchoqdan kirib keladi. Biroq, o‘sha paytdagi ijtimoiy siyosiy vaziyat tufayli Nurota vohasida o‘g‘uzlarining bir qismi qolib, katta qismi Amudaryodan o‘tib, hozirgi Turkmaniston hududiga borib joylashadilar.

R. Shamsutdinovning yozishicha, saljuqiylar Marv va Saraxs yerlarini qat’iylik bilan talab qildilar. G‘aznaviylar hukmdori Mas’ud turkmanlarga qarshi harbiy kuch ishlatishga majbur bo‘ldi. Lekin vaziyat g‘aznaviylar zarariga ishlayotgan edi. Xurosonda ularning obro-e’tibori qolmagan, shu bois ular hech kimga tayana olmas edilar. Ana shunday sharoitda g‘aznaviylar saljuqiylarga qarshi kurashda muvaffaqiyatga ko‘z tika olmas edilar. Mas’ud armiyasining Saraxs yonidagi mag‘lubiyatining bosh sababi ham xuddi ana shu edi. Endi turkmanlar uchun Xurosonning bosh shahri Nishopurga to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘l ochilgan edi. Saljuqiylarning boshlig‘i To‘g‘rulbek 1038-yilda 3 ming kishilik qo‘shin bilan

⁴ Исо Жабборов. Ўзбек халқининг этногенези. Т., “Ўқитувчи”, 1994, 225-бет.

⁵ Хамдамова М. Тарихи элчи Низомшоҳ. Тошкент, «Yangi nashr», 2012. Б.54-68.

⁶ Абулғози Баходирхон. “Шажарайи турк”. Т., “Чўлпон”, 1992. Б.49.



deyarli hech qanday qarshiliksiz Nishopurni egalladi⁷. 1040-yilda To'g'ulbek Saraxs va Marv oralig'idagi Dandanakan yonida Mas'ud qo'shiniga qaqshatqich zarba berdi. Mas'udning o'zi esa kichik bir qo'shin bilan zo'rg'a qochib qutuldi. Bu jang oqibatida g'aznaviylar davlati mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan bir viloyatga aylanib qoldi, harbiy va siyosiy ustunlik endi batamom saljuqiylarga o'tib ketdi.

G'aznaviylardan tortib olingan yerlarni To'g'ulbek saljuqiylar xonadonining a'zolariga udel sifatida taqsimlab berdi. Chagribek Davudga Marv va Xurosonning katta qismi, Muso Yobg'uga (To'g'ulbekning amakisi) Tus, Hirot va Seiston viloyatlari berildi. To'g'ulbek o'ziga Eronning shimoliy va shimoli-g'arbiy viloyatlarining katta qismini oldi. To'g'ulbek ayni zamonda saljuqiylar davlatining boshlig'i (1038–1063) ham bo'lib qoldi. To'g'ulbekning nigohi batamom g'arbga qaratilgan edi. U hujumni davom ettirib, Iroq Ajami (Fors Iroqi), Ozarbayjon, Kurdiston, Ko'histonni zabt etdi, To'g'ulbek 1055-yilda Bag'dodga kirib bordi va o'z nomini xutbaga qo'shib o'qitishga Bag'dod xalifasini majbur qildi.

Saljuqiylar davlatining poytaxti qilib Ray shahri belgilandi. To'g'ulbek iloji boricha qoraxoniylar bilan hamkorlikda va tinch yashashga harakat qildi. Ammo bu mustahkam bo'lmagan tinchlik va uzoqqa cho'zilmaydigan hamkorlik edi. 1063-yilda saljuqiylar davlatining asoschisi To'g'ulbek vafot etgach, taxtga uning jiyani, Chag'ribek Dovudning o'g'li Alp Arslon (1063–1072) o'tirdi. U davlat poytaxtini Marv (hozirgi Mari)ga ko'chirdi. Alp Arslon podsholigi davrida qoraxoniylar hukmdori Nasr bilan o'zaro qarama-qarshilik va ziddiyat kuchaydi. Alp Arslon Xuttalyon, Chag'oniyon, Jand va Savranga Xorazm tomonidan lashkar tortib bordi⁸.

Manbalarda ta'kidlanishicha, Alp Arslon 1072-yilda qoraxoniylarga qarshi yurish boshlab, qariyb 200 ming kishilik qo'shinni Amudaryodan o'tkazish uchun kemalardan maxsus ko'prik qurdirdi. Ammo yurish boshlanishi oldidan Alp Arslon o'z chodirida

⁷ Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. Тошкент, 2010. Б. 202.

⁸ Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. Тошкент, "Шарк". 2010. Б. 201.



mahalliy qal'alarning boshliqlaridan biri Yusuf al-Xorazmiy tomonidan o'ldirildi. Alp Arslon o'rniga taxtga vorislik qilgan Malikshoh (1072–1092) ko'p vaqt o'tkazmay Termiz va Balxni qoraxoniylardan qaytarib oldi. Ana shu davrdan boshlab ichki va tashqi siyosatda ustunlik batamom saljuqiylar qo'liga o'tdi.

K.SH. Shoniyozovning yozishicha, IX asr oxiri va X asr boshlarida yirik o'g'uz davlati vujudga keladi. Ana shu davrlardan boshlab o'zbek ajdodlari o'g'izlar bilan yaqindan etnik, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib kelganlar. O'g'izlarning ayrim guruhleri Keles cho'li, Angren va Chirchiq daryo qodiylarida Chatqol Ugom tog' oldi rayonlarida yashaganlar. Ularning musulmon dinini qabul qilgan qismi Shosh viloyatining qishloq va shaharlarida ham yashaganlar. Masalan, ular qarluqlar bilan birgalikda Beshkentda (hozirgi Toshkent viloyatidagi Piskent) o'g'uzlarning ayrim guruxlari VIII-X asrlar davomida Zarafshon vodiysida, Nurota tog'larida ham yashaganlar⁹. Movaraunnahrning dasht-sahrolari va asosan Zarafshon vohalariga hamda qadimgi Xorazmga kirib kelgan turkiy o'g'iz qabilalarida XI-XII asrlar etnik aralashuv va turklashish jarayonining eng jadallashgan vaqti bo'lib, aynan shu asrlarda Amudaryo orti va Xorazmda turkiyzabon xalqning kirib kelishi faolashib, ularning asosiy o'zagi shakllanadi.

Saljuqiylarning boshqaruv tizimi somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylarniki singari ikkiga: dargoh va devonlarga bo'lingan. Ulug' hoji, horis amiri (amiri horis), salohdor, xos vakil, alomdor, jondor, tashtdor, sarhang, miroxur dargohdagi asosiy lavozimlar sanalgan. Bosh vazir devoni a'lo - markaziy boshqaruv tepasida turgan. Devoni tug'ro, devoni istifo(moliya devoni), devoni ishraf (nazorat devoni), devoni arz (harbiy vazirlik) kabi rasmiy devonlar bulgan. Viloyat boshliqlari (voliylar) ham o'z devonlariga ega bo'lishgan. Voliylar sulton tomonidan tayinlangan bo'lib, ular viloyat hayoti bilan bog'liq barcha

⁹ Шониёзов К.Ш.. Қанғ давлати ва қанғиликлар. (Ўзбек халқининг сиёсий ва этник тарихидан). Т., “Фан”, 1990, 400 бет.



sohalar: moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralariga rahbarlik qilgan. Tuman va shahar miqyosidagi boshqaruv tizimi ham deyarli shunday bo'lgan¹⁰.

Saljuqiylar davlatida ayniqsa, Buyuk saljuqiylardan Tug'ulbek, Alp Arslon, Malikshoh, Sanjar davrlarida iqtisodiy va madaniy hayotda katta ko'tarilish yuz bergan. Hunarmandchilik taraqqiy qilgan: to'qimachilik, kulollik, zargarlik, oynasozik, temirchilik, ko'ncilik va gilam to'qish rivojlangan. Ichki savdo ham rivojlangan. Mamlakatda sof oltindan zarb etilgan dinor (qizil dinor) joriy etilgan. Bundan tashqari, mahalliy dinor (rukniy) va mis dirhamlar ham bo'lgan¹¹. Buyuk ipak yo'li ulkan saltanatning markaziy shaharlari orqali o'tgan. Sharqiy Yevropa, Vizantiya, Hindiston, Xitoy mamlakatlari bilan savdo aloqalari gurkirab rivojlangan. Malikshoh Sharq va G'arb o'rtasidagi savdoni jonlantirish uchun Xuroson va Iroq savdogarlarini boj to'lovidan ozod qilgan.

Saljuqiylar davlatida ilm-fan va madaniyat rivojlangan. Ayniqsa, Eron, Iroq va Movarounnahrda madaniy yuksalish yuqori bo'lgan. Nishopur, Isfaxon, Basra, Xiro, Marv, Buxoro, Samarqandda madrasalar bunyod kilingan. Xususan, 1067 yilda buyuk vazir Nizomulmulk qurdirgan Bag'doddagi Nizomiya madrasasi butun jahonga mashhur bo'lgan. Nizomulmulk davlatni boshqarish asoslari haqida "Siyosatnoma" asarini yaratgan. Munajjim va riyoziyotchi olim Umar Xayyom loyihasiga ko'ra, Isfahonda rasadxona qurilgan. U 1079 yilda Malikshoh topshirig'iga ko'ra, rasadxonada kuzatuv ishlarini olib borgan va sosoniylarning shamsi taqvi taqvimini isloh etib, Yangi taqvim ("Malikshoh taqvimi yoxud Jalol erasi") ni tuzgan¹². Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Sheroziy, Umar Xayyom fors she'riyatining so'nmas durdonalarini yaratishgan. Muhamma G'azoliy, Farididdin Attor, Xoja Yusuf Xamadoniy kabi islom ulamolari va sufiylar ijod qilishgan.

¹⁰ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000. 129.

¹¹ Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. Тошкент, "Шарқ". 2010. Б. 202.

¹² Зиё Азамат. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000. 129.



Saljuqiylar davlatida Bahovuddin Abubakr Marvaziy, Sharafiddin Tusiy, Abulhasan Ali Marvaziy, Abul Muzaffar Isfizoriy, Zahiriddin Gʻaznaviy kabi olimlar riyoziyot va ilmi nujum bilan mashhur boʻlgan. Ismoil Jurjoniy, Faxriddin Roziylar esa, tibbiyot va kimyo sohasining yetuk oimlari edi. Bu paytda Zahridin Nishopuriy, Sadriddin Xusayniy, Anushirvon Koshoniy, Abu Bakr Ravondiy kabi tarixchilarning asarlari yaratiladi¹³. Adabiyot sohasi nasr va nazmda adib Sobir Termiziy, Nosir Xusrav, Anvari, Asiriddin Axsikatiy, Rafʼiy Marvaziy va boshqalarning ijodi alohida ahamiyatga ega.

Shunday qilib, oʻgʻuz - turkman (saljuqiy) qabilalari Movaraunnahrdagi etnik jarayonlarga ham kuchli taʼsir koʻrsatgan. XI asrning birinchi yarmida gʻarbga oʻgʻizlarning hammasi ham siljib ketmagan edi, ularning ayrim guruhlar Movaraunnaxrda qolib, oʻzbek xalqining tarkibiga kirib, unga aralashib ketgan. Oʻgʻiz etnosi va uning tarkibidagi turkmanlarning salmoqli qismi Nurota togʻlarida qolib, bu yerda oldindan (VIII-IX asrlarda) yashab kelgan qabiladoshlari bilan birga boʻlgan. Oʻgʻiz turkmanlarning bu guruhi asrlar davomida oʻzbeklar bilan birga yashab ular bilan aralashib ketganligi tufayli keyingi avlodlar oʻzlarini ongli ravishda oʻzbek yoki oʻzbek turkmanlari deb kelganlar¹⁴. Ular uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida oʻzbek xalqi tarkibiga singib, uning mushtarak qismiga aylangan.

¹³ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000. 131.

¹⁴ Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент: Шарқ, 2001. Б. 112..